

## O`ZBEK TILIDA SO`ZLASHUV JARAYONIDA SOF O`ZBEKCHA SO`ZLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Shopõlatova Dilnoza Shuhratovna*

*Andijon shahar 3-sonli kasb --hunar maktabining  
ona tili va adabiyot fani õqituvchisi .*

**Annotatsiya:** So`zlashuv jarayonida sof o`zbekcha so`zlardan foydalanishning ahamiyati. Nutqimizni ko`rkamlashtirish yo`llari. O`zbek tilini mavqeyini oshirish va yoshlarimiz ongida ona tiliga muhabbatini kuchaytirish. Lug`atimiz boyligi ustida ishslash va uni yanada kengashtirish. O`z ona tilimiz ravnaqini oshirish va dunyo tillari qatoriga kirgazish bu yo`lda ajdodlarimizdan qolgan merosni o`rganish va fanga tadbiq etish. Dunyo tamaddunida yangi ochish yaratish va unda o`zbek tilini o`rnini yaratishning ustuvor yo`nalishlari.

**Kalit so`zlar:** O`zbek tili boyligi va ko`rkamligi, Nutqimiz jozibadorligi, so`zlarimiz jarangdorligi, sof o`zbek tilida gapirishni ahamiyatini oshirish.

### KIRISH

O`zbek tili – naqadar boy va ko`rkam til. Necha qadim zamonlardan buyon hozirgi kunga qadar o`z mavqeyini yo`qotmay kelayotgan tildir. Bu tilda Uvaysiyilar, Nodiralar, Huvaydo-yu Anbar Otinlar madh aylagan.

Shunday go`zal tilki, u tufayli biz onamizni atay olamiz, farzandlarimizni suyub erkalata olamiz. Bu gaplarni soatlab davom ettirsak bo`ladi, Ammo tanganing ikki tomoni bo`lgani kabi biz kundalik hayotda turli xil chetdan kirib kelgan so`zlarni ishlatamiz, va bu hozirgi kunda bizga bu odatiy holday tuyiladi. Ammo bu achinarli holat o`z tilimizda shunday go`zal ibora-yu, so`zlarimiz bo`la turib o`zga tillardagi so`zlardan foydalansak.

Bu so`zlar hayotimizga turli xil davrlarda aholining etnik jarayonlari natijasida paydo bo`lgan. Yurtimiz Chor Rossiyasi istibdodi davri undan keying mustamlakachilik davrida ko`p hujjalarni, qonun va qoidalarni telivediniya va radio rus tilida olib borilgan. Shuning uchun ham tilimizdagi ayni o`zlashma so`z rus tilidan kirib kelgan va o`zbekcha talaffuz qilinadi. Tilimizda Oloy bozori “Alayskiy” Farhod bozori “Farhadskiy” kabi talaffuz qilinadi. Bu so`zlarini yuqorida tarzda talaffuz qilinishi bir qarashda oddiydek tuyiladi insonga, lekin bu o`z tilimizga bo`lgan hurmatsizlik ekanini anglamaymiz ham.

Bundan tashqari so`zlashish chog`ida tasdiqlash, xulosa dalillash va shu kabi munosabat bildirish quyidagi so`zlardan foydalanamiz. Gaplarni tasdiqlash uchun “da, kanechna” so`zlarini ishlatamiz bu o`zbek tilida ha, albatta so`zları o`rnida qo`llaniladi.

Bundan tashqari “Tak shto” - so`zi demak, tochna - ayni so`zlaridan nutqimizda ko`p foydalanamiz.

Bunday so`zlardan ko`p foydalanishimizga asosiy sabab bizning badiiy asarlarni ko`p mutolaa qilmayotgaimiz. Gazeta va jurnallarga e`tibor qaratmaganimiz. Chunki XXI asr kompyuter texnologiyalar asri deb hisoblab badiiy adabiyotdan uzoqmiz. Bilmaymizki, badiiy adabiyot inson ruhini poklaydi, balki nutqni ta`sirchan qiladi. Nuroniy buvijon bobojonlarimiz so`zlariga e`tibor bersak rivoyat, naql, maqol-u, matallar ko`p uchratamiz Bunga sabab ular juda ko`p badiiy asarlar-u jurnallarni ko`p mutolaa qilishadi. Shuning uchun ham nutqlari ko`rkam-u, so`zları yoqimlidir. Biz yoshlarning yuqoridaǵi kabi so`zlarimiz bir qarashda jozibador tuyilsada, ammo bu gullar orasida yantoq o`sgandek ko`rinadi.

Shuning uchun nutqimiz ravonligi, so`zimiz sofligi ila so`zlashayli. Zero har bir gapimizdan dillar orom olsin. Tilimizda yana shunday so`zlar borki, ularni shu so`zlar qatorida qabul qilib qulog`imiz o`rganib qolgan. Bularga “Svetafor” so`zini olishimiz mumkin. Bu so`zni biz chorraha yo`llarda mashinalar qatnovini tartibga solib turishini bilamiz va bu so`zni boshqacha tarzda qabul qila olmaymiz. Bir o`ylab ko`rmaymizmi shu so`zni o`z ona tilimizdagı nomi nima ekan? Agar mantiqiy o`ylab qaraydigan bo`lsak svetafor yo`lni yaratish uchun mo`ljallangan.

Shuning uchun uni yo`l chiroq deb atasak bo`ladi va bu bilan lug`atimizni bir so`zga ko`paytirgan bo`lamiz. Lug`at boyligimizni o`stirish va nutqimizda sof o`zbekcha so`zlardan foydalanish o`z qo`limizda shunday ekan har birimiz buy o`lda harakat qilmog`imiz lozim. Yuqoridaǵi so`zlarning o`zbekcha muqobilini yaratib o`z ona tilimiz ravnaqiga hissa qo`shaylik. Zero bizning bobolarimiz Navoiylar, Lutfiylar, Atoiylar qalam tebratgan bu til shu holatida ham boy u chetdan kirgan so`zlarga muhtoj emas. Buyuk yozuvchi va adibimiz Abdulla Qodiriy “O`zbek tili kambag`al emas, balki o`zbek tilini kambag`al deguvchilarining o`zları kambag`al. Ular o`z nodonliklarini o`zbek tiliga to`nkamasinlar” degan edilar. So`zim avvalida aytganimdek o`zbek tili jozibador va jaranglidir.

Unda aytigelan har bir so`z va kuylangan navo dillarga yetib boradi.

## XULOSA

Bundan ko`rinib turibdiki biz o`zbek tilimizning mavqeyini oshirish yo`lida harakat qilishimiz kerak. Dunyoda baralla yangrasin madhiyamiz. Har qancha faxrlansa arziyadigan tilimiz bor. Hozir shu paytda bir zamonlar buyuk ozar shoiro Xalil Rizo Uluturkning jo`shqin misralari yodimga tushdi.

Qay bir kunda uchib kelding, samolardan o`zbek tili?

Qanot olding eng muqaddas sadolardan o`zbek tili!

Beshik tutgan kelinlarning allalarin tinglabmiding?

Yaralgansan shu nidolardan o`zbek tili!

Qanday ajoyib misralar to`grimi? Rostan ham o`zbek tili boy til.

Hozirgi kunda yo`qolib borayotgan tillar qatoriga kirmaydi. Lekin biz tilimizni yanada rivojlantirsak ota-bobolarimizdan qolgan merosni avaylasak ona tilimiz yana ming yillab ravnaq topadi.

### FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR

1. “O`zbek tilining yangi imlo qoidalari” – “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. O`zbek tilining izohli lug`ati – “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi”.
3. www.natlib.uz - O`zbekiston milliy kutubxonasi.
4. www.tafakkur.net - O`zbek va jahon adabiyoti durdonalari.